

# **ВИРТУАЛЬНАЯ ИЗМЕНА: КАК ПРИЧИНА РАЗВОДА.**

**Усмонова М.С.**

Старший преподаватель исторического факультета юридического факультета  
Ферганского государственного университета,  
**Доктор философии в области юридических наук (PhD)**

## **Абстракт.**

**Аннотация:** В статье освещены вопросы виртуальной измены как одного из факторов, приводящих к разводу, а также мнения ученых по этому поводу. Сегодня разводы по причине виртуальной измены становятся все более распространенными. На основании этого в статье развивается авторское определение понятия виртуального предательства. Обсуждаются противоречивые дискуссии о виртуальной измене как причине распада семьи.

**Ключевые слова:** семья, брак, пара, развод, измена, виртуальная измена, неподобающее поведение, интернет-среда, физическая близость, аморальность.

# **VIRTUAL INFIDELITY: AS A REASON FOR DIVORCE.**

**M.S.Usmanova.**

Senior lecturer of the Faculty of History, Faculty of Law, Fergana State University,  
**Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD)**

## **Abstract.**

**Annotation:** The article highlights the issues of virtual infidelity as one of the factors that cause divorce and the opinions of scientists in this regard. Today, divorces due to virtual infidelity are increasing more and more. Based on this, the author's definition of the concept of virtual betrayal was developed in the article. Also, the controversial discussion about virtual infidelity as a cause of family breakdown was discussed.

**Key words:** family, marriage, couple, divorce, infidelity, virtual infidelity, inappropriate behavior, Internet environment, physical intimacy, immorality.

## **Virtual xiyonat: nikohdan ajratish sababi sifatida.**

**M.S.Usmonova**

Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti, huquq ta'limoti kafedrasi katta  
o'qituvchisi, **Yuridik fanlar falsafa doktori (PhD)**

### **Abstrakt.**

**Annotatsiya.** Maqolada nikohdan ajralishga sabab bo'luvchi omillardan biri sifatida virtual xiyonat masalalari hamda bu boradagi olimlarning fikrlari yoritilgan. Bugungi kunda nikohdan ajrashish virtual xiyonat sababli ham tobora ko'payib bormoqda. Shundan kelib chiqib, maqolada virtual xiyonat tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Shuningdek, virtual xiyonat oilaning buzilishiga sabab bo'lishi haqidagi baxsli munozaralar muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** oila, nikoh, er-xotin, nikohdan ajratish, xiyonat, virtual xiyonat, nomunosib hulq-atvor, intrnet muhiti, jismoniy yaqinlik, ahloqsizlik.

Ma'lumki, nikohdan ajratish haqidagi ishlarning ko'riliishi boshqa yana 15 turdag'i fuqarolik nizolarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bunday nizolar qatoriga aliment undirish, moddiy ta'minot undirish, bolani olish, bola bilan ko'rishish tartibini belgilash, otalikni belgilash, uyga kiritish, uydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish va boshqa nizolarni kiritish mumkin.

X.Yodgorov nikohdan ajralishga sabab bo'luvchi omillar sifatida oilaviy hayotga zarur tayyorgarlikning yo'qligi, oila mas'uliyatini bilmaslik, zararli odatlarga o'rganib qolish, turli doiradagi (shu jumladan, virtual tarmoqlardagi) aralashuvlarni ko'rsatib o'tadi<sup>1</sup>.

Haqiqatan ham, bugungi kunda virtual xiyonat masalasi alohida muammoga aylangan deyish mumkin. Nikoh munosabatlarida xiyonatni o'rganishda turlicha standartlar tanlab olinishi ham sir emas. Masalan, erkaklar xiyonati bu oddiy

---

<sup>1</sup> X.Yodgorov. Oilaviy qadriyatlarni avaylab-asrash – kelajak avlodlar oldidagi muqaddas burchimizdir // O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborotnomasi. № 2. 2018. – B. 41.

hayotiy holat, ayollar xiyonati esa uyat hisoblanishi bu boradagi ikki xil standartlardan dalolat beradi<sup>2</sup>.

Nikoh mavjud bo‘lgan holatda xiyonat jiddiy masala hisoblanadi. Bu holatni psixolog va yuristlar shaxsiyatdagi buzilishlar bilan bog‘laydilar. O‘z navbatida, destruktiv xulq-atvor psixogen depressiyani yuzaga keltiradi, bu esa amalda “aldangan” turmush o‘rtoq sog‘lig‘i uchun jismoniy va ruhiy jihatdan salbiy ta’sirni ko‘rsatmay qolmaydi<sup>3</sup>.

Er-xotindan birining nikohdan tashqari aloqalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Bu muammoni ilmiy jihatdan o‘rganib, tadqiqot obyekti sifatida izlanish olib borgan amerikalik olimlar Jon Ganbon, Jon Moni, germaniyalik izlanuvchilar Gunter Shmitd, Volter Fridrix, Kurt Shtarkelarning tadqiqotlarida nikohdan tashqari munosabatlar o‘ziga xos tarzda tanqid qilingan bo‘lsa-da, o‘sha davrdagi ijtimoiy muhit, jamiyatdagi ro‘y bergen o‘zgarishlar tufayli ushbu muammolar kengayib, oila barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan<sup>4</sup>.

Milliy qonunchilik nafaqat virtual xiyonat, balki xiyonat masalasini ham nazarda tutmaydi. Biroq xiyonat milliy urf-odat va an'analarimizga ko‘ra noto‘g‘ri va nomunosib xulq-atvor hisoblanishi barchaga ayon holat hisoblanadi. Bu borada milliy va diniy tushunchalar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ayrim holatlarda xiyonat mol-mulk bo‘linishida inobatga olinishi ham kuzatiladi. Masalan, agar boquvchi turmush o‘rtoq yagona bo‘lgan holatda hiyonat qilsa, uning turmush o‘rtog‘i esa faqatgina uy yumushlari va farzandlar tarbiyasi bilan band bo‘lgan holatda o‘z xizmat lavozimlaridan voz kechgan va mehnat faoliyatini amalga oshira olmagan bo‘lsa, xiyonat qilgan shaxs turmush o‘rtog‘ining normal hayot tarzini ta’minlash majburiyatini bajarishi zarur<sup>5</sup>.

<sup>2</sup> Васина И.Д. Измена как проблема современной семьи // Научные труды Московского гуманитарного университета. №4. 2022. С.65.

<sup>3</sup> Бобровская М.А. Супружеские изменения как фактор расторжения семейных отношений // Скиф. 2020. №1 (41) // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/supruzheskie-izmeny-kak-faktor-rastorzeniya-semeynyh-otnosheniy>

<sup>4</sup> Gieze H., Schimidt G., Studenten – Sexualitat: Verhalten und Einstellung. – Reinbek, 2007. p. 223.

<sup>5</sup> Что грозит за супружескую измену по Семейному Кодексу РФ: законы и последствия // Источник: <https://dzen.ru/media/pravomoe/chto-grozit-za-suprujeskuiu-izmenu-po-semeinomu-kodeksu-rf-zakony-i>

Qayd etish lozimki, pandemiya nafaqat turli huquqiy institutlar rivojiga, balki oilaviy munosabatlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Xususan, “xiyonatga ruju qo‘yan” shaxslarni aniqlashda ham muyayyan o‘zgarishlar bo‘ldi. Aynan raqamli muhitda xiyonat qilishni jismoniy aloqasiz, virtual muhitda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, turmush o‘rtog‘idan sir saqlagan holda turmush o‘rtog‘iga bo‘lgan qiziqishni yo‘qotishda ifodalanuvchi fenomen sifatida ko‘rish mumkin<sup>6</sup>.

Ayrim mutaxassislarning fikricha, shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun internetdan foydalangan holda virtual hamkor bilan muloqot qilayotganda ehtiyyotkorlik bilan ajrimning oldini olish mumkin. Internet muhitidagi anonimlik holati sezib qolishdan qo‘rquvni yuzaga keltiradi, xavfsizlik muhiti bo‘lsagina, inosn o‘z emotsiyalarini erkin ifodalay oladi<sup>7</sup>.

Bu o‘rinda muallif fikriga qo‘shilish mumkin. Garchan, xiyonatning tushunchasi va holati birmuncha murakkab holat hisoblanib, xiyonat odatda inson bilan inson o‘rtasidagi munosabat sifatida qaralsada, virtual munosabatlarda real jismoniy yaqinlik mavjud bo‘lmagan holatda uni xiyonat deyish mumkin.

Fikrimizcha, virtual xiyonat – bu noma’qul xulq-atvor bo‘lib, er-xotinning bir-biriga nisbatan sadoqatidan chetga chiqqan holda boshqa shaxs bilan internet muhitida qiziqish bildirish va uning huquqiy oqibatga olib kelishidir.

A.G.Krivsov o‘ziga xos tadqiqot o‘tkazib, nikohdan tashqari munosabatlar sabablarini o‘rganadi. Uning fikricha, o‘zaro nikohdagi shaxslarning munosabatlari mos kelmasligi, jinsiy tarbiyatagi farqlar, tarbiyatagi nisbatlar, hattoki psixogigiyenik bilimlarning pastligi ham sabablar sifatida keltirilgan<sup>8</sup>.

V.A.Sisenko esa, bu borada jismoniy moslikka doir fikrlarni ilgari suradi va juftliklardan birining jinsiy ehtiyoji qondirilmasligi, shu jumladan humatsizlik

---

posledstviia-5bcef6fa0c9b0500a944cd24

<sup>6</sup> McQueen P. Sexual Interaction and Infidelity. The Journal of Ethics. 2021. 25(2). p. 1-18.

<sup>7</sup> Галяутдинова С.И., Ахмадеева Е.В. Понимание супружеской измены пользователями интернет-пространства // Вестник Башкирск. ун-та. 2013. №3. / URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponimanie-supruzheskoy-izmeny-polzovatelyami-internet-prostranstva>

<sup>8</sup> Кривцов А.Г. Самом интимном. – Ростов-на Дону, 1990. – С. 62.

bilan munosabatda bo‘lish, doimo tanqid qilish ham nikohdan tashqari munosabatlarga sabab bo‘lishini ko‘rsatib o‘tadi<sup>9</sup>.

Fikrimizcha, nikohdan ajrashishga sabab bo‘luvchi nikohdan tashqari munosabatlar qachonki er va xotin o‘rtasida o‘zaro hurmat va tushunish, moddiy manfaatlarning yetarli darajada qondirilishi va mehr-muhabbat yetarli bo‘lgan taqdirdagina yuzaga kelmasligi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.Yodgorov. Oilaviy qadriyatlarni avaylab-asrash – kelajak avlodlar oldidagi muqaddas burchimizdir // O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborotnomasi. № 2. 2018. – B. 41.
2. Васина И.Д. Измена как проблема современной семьи // Научные труды Московского гуманитарного университета. №4. 2022. С.65.
3. Gieze H., Schmidt G., Studenten – Sexualitat: Verhalten und Einstellung. – Reinbek, 2007. p. 223.
4. Что грозит за супружескую измену по Семейному Кодексу РФ: законы и последствия // Источник:  
<https://dzen.ru/media/pravomoe/chto-grodit-za-suprujeshkuiu-izmenu-po-semeinomu-kodeksu-rf-zakony-i-posledstviia-5bcef6fa0c9b0500a944cd24>
5. McQueen P. Sexual Interaction and Infidelity. The Journal of Ethics. 2021. 25(2). p. 1-18.
6. Галяутдинова С.И., Ахмадеева Е.В. Понимание супружеской измены пользователями интернет-пространства // Вестник Башкирск. ун-та. 2013. №3. / URL:  
<https://cyberleninka.ru/article/n/ponimanie-supruzheskoy-izmeny-polzovatelyami-internet-prostranstva>
7. Кривцов А.Г. Самом интимном. – Ростов-на Дону, 1990. – С. 62.

<sup>9</sup> Сысенко В.А. Устойчивость брака. – М.: МЫСЛ, 1991. – С. 106.

8. Сысенко В.А. Устойчивость брака. – М.: МЫСЛ, 1991. – С. 106.